

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduxalimov	
Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....	213
F.K.Yusupjanova	
Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rganish	217
F.M.Mamadjanov	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari.....	227
M.Komilova	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish.....	233
A.A.Abduxalimov	
Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....	239
I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova	
Portulaca oleracea o'simligining kimyoviy xossalari	242
S.M.Isroilova	
Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....	249
Sh.V.Djalolov	
Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining monitoringi.....	253
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik katta ashula darg'alari.....	260
D.T.Samatov	
Falsafa fanini o'qitishda multimediyaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi.....	265
A.U.Azimov	
Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni	269
A.A.Ahrorqulov	
Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash.....	275
D.A.Mamajonova	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari.....	279
M.M.Mamadaliyeva	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili	282
U.O'.Musoyev	
Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi.....	286
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiy va maxsus tayyorgarligi	291
M.M.Alimova	
Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati)	299
R.Sh.Bozorova	
Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni.....	303
E.X.Zoyirov	
Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi	307
A.S.Inomov	
Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi.....	311
I.S.Aslonov	
O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi	316
B.M.Jo'raquziev	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari	320
O.Radjabov	
Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi	324
Y.Shukurillaev	
Sho'ro Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili	330
M.M.Mamatkodiurov	
Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar.....	333
M.Sh.Qoraboeva	
Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili	338

**OLIV TA'LIM SOHASIDA KORRUPSIYA VA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATAR
TUSHUNCHALARI****ПОНЯТИЯ КОРРУПЦИИ И КОРРУПЦИОННОГО РИСКА В СФЕРЕ ВЫСШЕГО
ОБРАЗОВАНИЯ****CONCEPTS OF CORRUPTION AND CORRUPTION RISK IN THE FIELD OF HIGHER
EDUCATION****Mamajonova Dilfuza Abdujabborovna¹****¹Mamajonova Dilfuza Abdujabborovna**— Farg'ona davlat universiteti Huquq ta'limi
kafedrası o'qituvchisi**Annotatsiya**

Korrupsiyaga qarshi nafaqat davlat organlari balki talim muassasalari organlarining faol harakati va ularning bu illat yuzasidan asos deb biladigan fikr va mulohazalari batafsil yoritilib ko'rsatilib o'tilgan.

Аннотация

Подробно показаны активные действия не только государственных органов, но и образовательных учреждений против коррупции, их мнения и соображения относительно этого зла, которое они считают основой.

Abstract

The active action of not only state bodies but also educational institutions against corruption, and their opinions and considerations regarding this evil, which they consider to be the basis, are shown in detail.

Kalit so'zlar: "Mahalliy davlat organlari nazorati", "Ijtimoiy fikr", "Shikoyatlar", "Jinoiy javobgarlik".

Ключевые слова: «Контроль местных государственных школ», «Общественное мнение», «Жалобы», «Уголовная ответственность».

Key words: "Control of local state authorities", "Social opinion", "Complaints", "Criminal responsibility".

KIRISH

Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchasini yoritishdan avval "korrupsiya" tushunchasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Korrupsiya atamasi lotincha "corruption" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadi. Keyingi qarashlarga ko'ra, korrupsiya atamasi lotincha "corrumpere" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "buzilish, aynish, tanazzul" degan ma'nolarni anglatadi. Korrupsiya tushunchasiga keltirilgan barcha tariflarda korrupsiya va mansabdor shaxs vakolatlari o'rtasida bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilgan, chunki korrupsiya va mansab vakolati bir-birini taqozo etuvchi omillar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra, korrupsiya - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish hisoblanadi. Biroq, mazkur tarifda mansab vakolatini suiste'mol qilish holati ko'rsatilmagan, chunki milliy qonunchilikda mansab vakolatini suistemol qilish korrupsiyaviy jinoyat sifatida baholanmaydi. Biroq BMTning 2003-yil 31-oktabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiya"ning 19-moddasida, mansab vakolatini suiste'mol qilish korrupsiyaviy jinoyat sifatida keltirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta'lim sohasida korrupsiya tushunchasi umumiy xususiyatlarni o'z ichiga olish bilan birga maxsus sohaga oid xususiyatlarini ham qamrab oladi.

Vanderbilt Universiteti professori A.Osipian oliy ta'lim sohasida korrupsiyani davlat yoki korporativ ishonchni suiste'mol qilish orqali taqiqlangan moddiy yoki nomoddiy boyliklar olishdagi munosabatlarni tartibga solish uchun yaratilgan norasmiy aloqalar tizimi deb hisoblaydi.

Ukrainaning Ta'limni rejalashtirish xalqaro instituti ilmiy xodimlari A.Bazxal, T.Galkovskaya, O.Skripkin "oliy ta'limdagi korrupsiyani davlat xizmatchisi tomonidan mansab vakolatini suistemol

qilishi natijasida ta'lim olish huquqiga, sifatiga, tengligiga salbiy ta'sir qiluvchi harakatlar", deb baholaydi.

Fikrimizcha, oliy ta'lim sohasida korrupsiya – oliy ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, mansab lavozimini suiste'mol qilishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish hisoblanadi. "Korrupsiyaviy xavf-xatar" tushunchasi korrupsiya tushunchasidan tubdan farq qiladi. Mazkur tushuncha "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasida, "normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash jarayonida korrupsiya xususiyatiga ega xavflarning yuzaga kelishi ehtimolini prognoz qilish shaklida" kelgan.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni kelib chiqishiga yoki ularni keng yoyilishiga hissa qo'shadigan hodisa yoki hodisalar yig'indisi hisoblanadi. Shunga o'xshash tarifni O.Kazachenkova keltirib o'tgan bo'lib, uning fikricha, korrupsiyaviy xavf-xatarlar davlat organlari va davlat xizmatchilari faoliyatini amalga oshirishda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni kelib chiqishiga sababchi bo'ladigan holatlar, hodisalar va omillar hisoblanadi. Ba'zi olimlar korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchasini korrupsiyaviy muammoning sinonimi yoki davlat va jamiyat faoliyatida qiyinchiliklar keltirib chiqaruvchi omil sifatida baholashgan.

V.Astanin mazkur tushunchani davlat xizmatchisi faoliyati bilan bog'lab, unga davlat xizmatchisi tomonidan vazifalarini amalga oshirishda belgilangan majburiyatlar, ta'qiqlar va cheklovlarga rioya qilmaslik shaklidagi korrupsiyaviy xulq-atvorlarni deb ta'rif bergan.

V.Georgiyev esa, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir bo'lishining ehtimollik darajasi deb baholagan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchasini professor A.Osipian tizimda korrupsiyaga duch kelish ehtimoli sifatida baholab, uni tovlamachilik va pora olish zarurati bilan bog'liq deb hisoblagan.

Fikrimizcha, korrupsiyaviy xavf-xatarlar tushunchasiga ikki xil yondashuv asosida tarif berish mumkin.

Birinchidan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar va sharoitlar sifatida baholash mumkin. Universitet binosini kapital ta'mirlash rektorning ukasiga tegishli bo'lgan qurilish korxonasi tomonidan amalga oshirish holatini bunga yaqqol misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bu holat korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etilish ehtimolini, ya'ni xavfni keltirib chiqarishi mumkin.

Ikkinchidan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bevosita korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar sifatida tushunishimiz mumkin. Masalan, korrupsiyaning yuqori darajasi natijasida davlatda yuz beradigan iqtisodiy inqiroz, fuqarolarning ijtimoiy himoyasi ta'minlanmasligi, siyosiy inqilob va boshqalar.

XULOSA

Ushbu borada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni birinchi yondashuv bo'yicha o'rganamiz, chunki korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan ko'ra uni oldini olish samaraliroq.

Oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar va xavf-xatarlar o'zining xususiyatlari, subyektlari, ijtimoiy munosabatlar doirasi bo'yicha boshqa sohadagi xavf-xatarlardan farq qiladi. Barcha tariflarni umumlashtirgan holda **oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni** – sohadagi davlat hokimiyati organlari va ta'lim muassasalari xodimlari faoliyat jarayonida yuzaga keladigan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etish imkoniyatini yaratadigan holatlar, omillar va harakatlar sifatida baholash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza, 2018 yil 7 dekabr.
2. Sh.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan murojaatnomasi, 2020 24 yanvar.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Respublika Idoralararo komissiyaning yig'ilish bayoni, "Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish va qonuniylikni ta'minlashga doir masalalar" – 2019 yil 18 yanvar.
4. Akhrorkulov, A. (2020). Non-Profit Organizations: Legislation Reform And Law Enforcement Practice. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2(10), 129-134.

5. Gulyamov, S., & Ahrorqulov, A. (2022). NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY ASOSLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 1029-1041.

6. Ahrorqulov, A. (2022). NOTIJORAT TASHKIOTLARI TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 893-902.

7. Akhrorqulov, A. (2020). Issues of formation and registration of non-profit organizations. *Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19)*, 1(02), 23-26.

8. Mamajonova, D. (2022). KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR–XALQ MANFAATINING ASOSIY MEZONI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 688-693.

9. Dadaboeva, D. A. (2021). Civil-legal regulation of educational services. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 448-453.

10. Baratov, M., & Borotov, A. (2021). METHODS AND RESOURCES OF REALIZING THE RIGHT OF PRIVATE PROPERTY OR THE RIGHT TO USE THE LAND AS AN ELEMENT OF PRIVATE PROPERTY. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.4 Legal sciences).

11. Borotov, A. X. (2021). XUSUSIY MULK HUQUQINI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI: DE YURE/DE FACTO. *JURNAL PRAVOVIX ISSLEDOVANIY*, 6(5).

12. KO 'CHMAS MULK SOTILGANDA YER UCHASTKASIGA BO 'LGAN HUQUQNING YURIDIK TAQDIRINI BELGILASH A Rahimjonov "Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ... 2 2022

13. INCREASING CIVIL LIABILITY FOR VIOLATION OF RIGHTS TO REAL ESTATE A Rakhimjonov "The american journal of social science and education innovations" 3 (04 ... 1 2021

14. Topildiyev, B. R. (2022). MOL–MULKNI ISHONCHLI BOSHQARISH TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 998-1008.

15. Topildiyev, B. R. (2017). Osnovniye usloviya dogovora doveritelnogo upravleniya imushestvom. *Yurist*, (9), 15-19.